



Theoretical foundations for utilizing modern methods and visual materials in English language teaching

Muso TODJIXODJAEV¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form 5
October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online 25
November 2025

Keywords:

memes,
comics,
ELT methodology,
visual tools,
multimodal learning,
motivation,
communicative competence.

ABSTRACT

This article analyzes the theoretical and practical foundations of using memes and comics in English language teaching. It highlights the role of visual and multimodal tools in enhancing learners' motivation, vocabulary development, intercultural competence, and communicative skills.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss10/S-pp109-112>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy metodlar va vizual materiallardan foydalanishning nazariy asoslari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

memlar,
komikslar,
ingliz tili o'qitish metodikasi,
vizual vositalar,
multimodal ta'lim,
motivatsiya,
kommunikativ
kompetensiya.

Ushbu maqolada ingliz tili o'qitish jarayonida memlar va komikslardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Vizual va multimodal vositalarning o'quvchilarning motivatsiyasi, lug'aviy boyligi, madaniyatlararo kompetensiya hamda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan.

¹ Faculty of World Languages, Namangan State University. E-mail: aziz.1959@mail.ru

Теоретические основы использования современных методов и визуальных материалов в преподавании английского языка

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

мемы,
комиксы,
методика преподавания
английского языка,
визуальные средства,
мультимодальное
обучение,
мотивация,
коммуникативная
компетенция.

В данной статье анализируются теоретические и практические основы использования мемов и комиксов в процессе преподавания английского языка. На научной основе освещена роль визуальных и мультимодальных средств в повышении мотивации учащихся, обогащении их словарного запаса, развитии межкультурной компетенции и коммуникативных навыков.

KIRISH

Zamonaviy ingliz tili o'qitish jarayonida memlar va komikslardan foydalanish talabalarning darsga bo'lgan qiziqishi va ishtirokini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Memlar qisqa matn va vizual elementlar orqali mazmun yetkazib, o'quvchilarda tezkor idrokni shakllantiradi. Komikslar esa hikoya asosidagi multimodal ta'lim vositasi sifatida kontekstda so'z va grammatik strukturalarni tabiiy o'zlashtirishga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, bilimni samarali egallash va til ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chet tilini o'qitishda faqat an'anaviy darslik va og'zaki izohlar bilan chegaralanish yetarli emas. Shu sababli, pedagogik jarayonda vizual vositalar (diagramma, kartochkalar, memlar, komikslari, grafiklar, videolavhalar)dan foydalanish o'quv jarayonini samarali va interaktiv qiladi. Vizual materiallar o'quvchilarga tilni kontekstda tushunish, yangi lug'atni mustahkamlash va grammatika qoidalarini real holatda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Chet tili ta'limida vizual vositalardan foydalanish zamonaviy pedagogika va lingvodidaktikaning asosiy talablardan biridir. 2 Vizual materiallar o'quvchilarning idrokini faollashtiradi, til o'rganish jarayonida tushunishni osonlashtiradi va uzoq muddatli xotirani mustahkamlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson miyasi vizual ma'lumotni matnga nisbatan tezroq qabul qiladi, shu bois chet tilini o'rgatishda ko'rgazmali vositalar samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. 1. Vizual vositalarning pedagogik ahamiyati Vizual vositalar til o'rganuvchilarni mavzuga jalb etish, o'quv jarayonida qiyin grammatik va leksik birliklarni tushuntirish hamda ularni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ko'rgazmali materiallar talabalar diqqatini jamlashga yordam beradi, ta'lim jarayonini ko'proq interaktiv va motivatsion qiladi. Shuningdek, vizual obrazlar orqali berilgan ma'lumot oson esda qoladi va o'quvchilarda mantiqiy bog'lanishlarni shakllantiradi. Vizual vositalar sifatida internet memlari maktab o'quvchilarini jalb qilishga va ularning e'tiborini jozibali tasvirlar va ixcham kontent orqali boshqarishga yordam beradi. Bundan tashqari, memlarning asosiy afzalligi shundaki, ular tezda eslab qolinadi va o'rganish uchun kam harakat talab etiladi. Buning sababi, bolalar memlarni ta'lim ma'lumotlari sifatida emas, balki o'yin-kulgi sifatida qabul qiladilar. Boshqacha qilib aytganda, sinfda memlardan foydalanish o'quv materiallarini tushuntirish, yangi mavzularni o'zlashtirish va mustahkamlash jarayonini osonlashtiradi, shuningdek, o'quvchilarga o'zlarini qulayroq his qilishlariga imkon beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi: 1) ilmiy adabiyotlar tahlili; 2) mem va komikslarning lingvistik-semiotik tahlili; 3) pedagogik tajribalar o'rganilishi; (4) namunaviy darslarda qo'llanilgan vizual materiallarning samaradorligini kuzatish. Global kommunikatsiyaning keskin kuchaygani va xalqaro aloqalarning chuqurlashgani sababli xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. O'zbekistonda ingliz tilini o'qitish nafaqat ijtimoiy madaniy, balki iqtisodiy va ilmiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi vosita sifatida ham ahamiyatga ega. Zamonaviy til o'qitish metodlari bu jarayonni samarali tashkil etish, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarda til kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotda sifatli kontent tahlili, amaliy kuzatuv, pedagogik tajriba va anketaviy so'rov asosida metodik yondashuvlar baholandi. Jumladan, multimodal ta'lim texnologiyalari, CLIL (Content and Language Integrated Learning), gamifikatsiya, interaktiv muloqot platformalari (Zoom, Padlet, Quizlet, Kahoot) va 13 onlayn muhitda tilni o'rgatish bo'yicha ilg'or uslublar sinovdan o'tkazildi. Ta'limda AI (sun'iy intellekt) asosidagi vositalardan, xususan, avtomatik transkriptorlar, tarjima mashinalari va matn tahlil algoritmlaridan foydalanildi. Zamonaviy ta'lim jarayonida ingliz tilini o'qitishda integratsiyalashgan yondashuvlar alohida e'tiborga loyiq. Xususan, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda nafaqat til bilimlari, balki amaliy nutqiy malakalar, tanqidiy fikrlash, axborotni saralash va o'z fikrini asoslash ko'nikmalari shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ingliz tili darslarida real hayotiy vaziyatlarga mos topshiriqlardan foydalanish, rol o'ynash, munozaralar tashkil etish va loyihalarga asoslangan o'qitish usullari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bundan tashqari, ingliz tilini o'rganishda multimodal resurslar – videodarslar, audio materiallar, infografikalar va vizual stimullar – o'quvchining turli sensor tizimlari orqali bilimni qabul qilishiga yordam beradi. Ayniqsa, zamonaviy maktab va oliy ta'lim muassasalarida interaktiv doskalar, electron platformalar va virtual sinflardan foydalanish orqali o'quv jarayoni soddalashtirilmoqda, shaxsiylashtirilgan ta'limga imkon yaratilmoqda. Shuningdek, onlayn baholash vositalarining joriy qilinishi – testlar, viktorinalar, yozma topshiriqlarni avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish imkoniyatlari – o'qituvchiga talabalarni individual kuzatib borish, ularning o'zlashtirish darajasini aniq baholash, differensial yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Muhimi, ingliz tilini o'rgatishda madaniyatlararo muloqotga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Tilni o'rganish – bu faqat grammatika va lug'at yodlash emas, balki til egasi bo'lgan xalqning urf-odati, qadriyati va madaniyati bilan tanishish demakdir. Shuning uchun ingliz tilini o'qitishda adabiy asarlar, hujjatli filmlar, tarixiy materiallar, zamonaviy ijtimoiy voqealarga oid matnlar asosida dars tashkil etish til o'zlashtirish samaradorligini sezilarli oshiradi. Natijalar Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, multimodal yondashuvlar o', o'quvchilarda tilga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqish uyg'otish hamda ularning global muloqotga tayyorligini 14 shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy metodikalar, xususan MAT, CLIL, gamifikatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning til o'zlashtirish darajasini sezilarli oshiradi. Kelajakda bu metodlarni milliy ta'lim tizimiga integratsiyalash orqali nafaqat til o'rgatish samaradorligi, balki umumiy kommunikativ va kognitiv salohiyatni rivojlantirish mumkin. O'qituvchilar, ta'lim muassasalari va davlat siyosatining uzviy hamkorligi ingliz tilini o'qitish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar vizual vositalarning til o'rganishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Memlar madaniy elementlarni tez tan olishga yordam bersa, komikslar hikoya tuzish, dialog shakllantirish, ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, multimodal ta'lim vositalari raqamli savodxonlikni kuchaytiradi.

NATIJA

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, memlar lug'aviy birliklarni tez va samarali o'rgatishga yordam beradi, chunki ular asosiy ma'noni qisqa va esda qolarli shaklda taqdim etadi. Komikslar esa ketma-ket tasvirlar orqali fikrlashni faollashtirib, grammatik strukturani kontekst asosida o'zlashtirishni osonlashtiradi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning motivatsiyasi va nutq faolligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. O'quvchilarning tilni o'zlashtirish darajasini sezilarli oshiradi. Xususan, matn, audio, video va interaktiv topshiriqlar uyg'unligida tashkil etilgan darslar til muhitini sun'iy ravishda shakllantirib, muloqot ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. CLIL metodikasi esa fanni til vositasida o'qitish orqali tilni real kontekstda o'rgatishga xizmat qiladi. Onlayn platformalar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tilni o'rganishda mustaqillikni ta'minlaydi, talabaning faol ishtirokini oshiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini o'qitishda bir tomonlama grammatik yondashuvlar o'z samarasini yo'qotmoqda. Yangi metodikalar, ayniqsa MAT asosidagi multimodal yondashuv, o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. O'zbekiston sharoitida esa ingliz tilini o'rganishda motivatsiyani kuchaytirish, til muhitini yaratish, individual yondashuvni joriy qilish muhim vazifalar hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilarning doimiy malaka oshirishini, zamonaviy texnologiyalarga tayangan holda dars berishini talab qiladi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, memlar va komikslar ingliz tili o'qitishning innovatsion va samarali vositasi hisoblanadi. Ular o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, lug'aviy boyligini kengaytiradi, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi hamda ta'lim jarayonida ijodkorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Mem va komikslardan foydalanish o'qitish jarayonida vizual idrok, kontekstual tushunish, emotsional bog'lanish kabi omillarni kuchaytiradi. Betakror vizual obrazlar, qisqa va mazmunli matnlar, hazil elementlari o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Paivio tomonidan ilgari surilgan Dual Coding nazariyasi asosida mem va komikslardagi rasm-matn uyg'unligi o'quvchilarning eslab qolish jarayonini ikki marta kuchaytirishi tasdiqlandi. Bu esa ingliz tilidagi murakkab lug'aviy birliklar, slenglar, idiomalar, grammatik strukturalarning osonroq o'zlashtirilishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Bardakova D.I. Multimodal ta'limda komikslardan foydalanish. – Moskva, 2020.
2. Shults E. Comics in Education: Theory and Practice. – New York, 2016.
3. Kalitina K. Visual Pedagogy in ELT. – London, 2019.
4. Pugachenko A.S. Media Literacy and Digital Tools in Language Teaching. – Berlin, 2021.
5. <https://www.teachingenglish.org.uk>
6. <https://www.cambridgeenglish.org/teaching-english>
7. <https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages>